

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISLOM DINI- TINCHLIK,  
BAG'RIKENGLIK VA MA'RIFAT DINI**

**В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ИСЛАМ – РЕЛИГИЯ МИРА,  
ТОЛЕРАНТНОСТИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ.  
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, ISLAM IS A RELIGION OF  
PEACE, TOLERANCE AND ENLIGHTENMENT**

*Norimonova Gulmira Ulug'bek qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq talimi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada har bir inson, butun jamiyat hamda xalqlarning turli- tuman urf- odatlari, madaniyati va qadriyatlarini tan olgan holda bag'rikenglik tamoyili asosida yashashimiz lozimligi haqida so'z yuritiladi. Islom dini: tinch-totuvlik, bag'rikenglik va taraqqiyot garovi demakdir. Bundan tashqari, mamlakatdagi tinchlik va barqarorlikning asosiy omillaridan biri murosa tamoyili hisoblangan diniy bag'rikenglik haqida so'z boradi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о необходимости жить, основываясь на принципе толерантности, признавая традиции, культуру и ценности каждого человека, всего общества и народов. Ислам – залог мира, толерантности и прогресса. Кроме того, идут разговоры о религиозной толерантности, которая считается одним из главных факторов мира и стабильности в стране.

**Abstract:** This article talks about the need to live based on the principle of tolerance, recognizing the traditions, culture and values of each person, the whole society and peoples. Islam is a pledge of peace, tolerance and progress. In addition, there is talk about religious tolerance, which is considered one of the main factors of peace and stability in the country.

**Kalit so'zlar:** Ma'rifat, tolerantlik, bag'rikenglik, din, millatlararo totuvlik, tinchlik, masjid, madrasa, vijdon erkinligi.

**Ключевые слова:** Просвещение, толерантность, толерантность, религия, межнациональное согласие, мир, мечеть, медресе, свобода совести.

**Key words:** Enlightenment, tolerance, tolerance, religion, international harmony, peace, mosque, madrasa, freedom of conscience.

**Kirish:** O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari hamjihatlikda istiqomat qilib kelmoqda. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar

bo'lmagani xalqimizning azal- azaldan bag'rikengligi tufaylidir. Respublikamizda e'tiqod erkinligining fuqarolarga kafolatlanishi diniy- ma'rifiy ilm eshiklarini ochib kelmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 35- moddasi: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlar majburan sindirilishiga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilab qo'yilgan. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda vijdon erkinligi niqobi ostida terroristic va ekstremistik qarashlarni targ'ib qilish hamisha qoralanib kelinmoqda. Shu sababdan, 2018- yilda yurtimizda "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida" gi Qonun qabul qilingan.

Mening fikrimcha, din- e'tiqoddur. Har bir kishining shaxsiy ishi hisoblanadi. Din muayyan ta'limotlar, his- tuyg'ular, toat- ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan hodisa hisoblanadi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi. Shu jumladan, islom dini ham. U halollik, tinchlik, yaxshilik va do'stlik kabi bir qator ezgu fazilatlariga tayanadi. Insonlardagi halollik va poklik, mehr- oqibat, insonparvarlik va bag'rikenglikka da'vat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar:** Islom dini- tinchlik, xotirjamlik va yengillik dinidir. "Islom" so'zining arab tilidagi lug'aviy ma'nosi- "bo'ysunish", "itoat etish", Allohga til bilan imon keltirib, dil bilan tasdiqlash, uning ko'rsatmalariga bo'ysunishini anglatadi. "Islom" so'zining o'zagi aslida "salom" bo'lib, tinchlik, sulh ma'nosini anglatadi. "Salom" so'zi Qu'ronning 30 dan ortiq joyida takrorlangan. U Alloh taoloning go'zal ismlaridan biri hisoblanadi. Tinchlik bor joyida har doim yuksalish bo'ladi. Tinchlik bebaho ne'mat ekanligi haqida islom manbalarida ham o'z aksini topgan. Shu jumladan, Qu'roni karimda "Ey, iymon keltirganlar! Yoppasiga kirishingiz!" [Baqara, 208- oyat] deyiladi.

XXI asrda tinchlik ne'mati ko'plab mamlakatlar uchun orzu bo'lib kelmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda tinchlikni asrashimiz va uni qadriga yetmog'imiz zrrur. Tinchlik- urush va nizolarga barham berish orqaligina ta'minlanadi. Bunga misol qilib, 2011-2019-yillarda ba'zi arab mamlakatlarida ro'y bergan va hamon davom etib kelayotgan siyosiy inqirozlar oqibatida yuzaga kelatotgan turli xil to'qnashuvlar misol qilishimiz mumkin. Mana shunday ommaviy tartibsizlik tufayli Tunisda 300 nafar, Misrda 800 nafar, Liviyada 14 ming nafar, Suriyada 140 mingga yaqin kishi halok bo'lgan. Bugungi kunda tinchlikka rahna solish, jamiyatimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligiga ziyon yetkazish, fitna qo'zg'atish kabi o'zaro nizolashish, umuman olganda, islom diniga yot holat drb hisoblayman. Imom Bazzoliy aytganidek: "Diniy muttasiblar dindan foydalangan holda kishilarga hujum qiladigan kata yo'ldagi qaroqchilardir".

Ma'lumki, O'zbekiston diniy bag'rikenglik yurti. Ayniqsa, O'zbekiston mustqailikka erishgandan keyin, Islom dini hayotda munosib o'rinini egallay boshlagan. Shu jumladan, musulmonlarning diniy ibodat va marosimlarini ado etishlari

uchun sharoit yaratib berildi. Mustaqillik sharofati bilan Islom dinining muqaddas kitobi Qu'roni karim 2 marta o'zbek tilida chop etildi. Hozirgi kunga kelib, Qu'roni Karimning o'zbek tilidagi beshta : Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol", Oltinxon To'ra, Alouddin Mansurning "Qu'roni karim"ning o'zbekcha izohli tarjimai, Shayx Abdulaliz Mansurning "Qu'roni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" va muftiy Usmonxon Alimovning "Tafsiri Irfon" kabi o'zbek olimlari tomonidan tayyorlangan ma'nolari va tarjimalari nashr qilingan. XX asr oxirlaridan boshlab mamlakatimizda Islom bo'yicha obyektiv tadqiqotlar olib boorish imkoniyati paydo bo'ldi. 1992-yil Toshkent davlat sharqshunoslik institutida islomshunoslik kafedraasi ochildi va barcha viloyatlarda diniy o'quv yurtlari faoliyat olib boshladi. 1992-yil Toshkent Islom Universiteti tashkil topadi va uning tarkibida Islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Diniy ishlar qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7- iyundagi "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada takomillashtirish chora- tadbirlari tog'risida"gi qarori bu sohadagi ishlarning davomi sifatida e'tirof qilishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbuslari bilan 2018-yilning yanvar- aprel oylarida "Respublika Qu'ron musobaqasi" o'tkazildi. Qu'ron musobaqalarida yurtimizda 5397 nafar qorilar ishtirok etgan bo'lsa, ulardan 2114 nafari ayollar hisoblanadi. Bugungi kunda "Haj" ziyoratiga O'zbekistonda 7200 nafardan oshiq hamyurtlarimiz borishlari uchun keng imkoniyatlar mavjud. Mustaqullik yillarida 93 ming yurtdoshlarimiz "Umra" ziyoratida bo'ldilar. Hozirgi kunga kelib Umra ziyoratiga borishdagi cheklovlar butunlay olib tashlangan bo'lib, yurtdoshlarimiz yil davomida ziyoratga borishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston musulmonlar idorasida "Movorounnahr" nashriyotifaoliyat ko'rsatadi", "Islom nuri" gazetasi, "Hidoyat" jurnali nashr etib kelinmoqda

**Natijalar:** O'zbekiston- dunyoviy davlat. Jumladan, dunyoviy davlatda amal qiladigan davlat va din munosabati tamoyillari o'zbekistonda ham amal qiladi. O'zbekiston davlati o'z fuqarolarining diniy e'tiqodlarini hurmat qiladi. Dunyoviy davlat- bu, o'z fuqarolari uchun vijdon erkinligini e'lon qiladigan davlat hisoblanadi. Bunday davlatning fuqarolari dinga munosabatidan qat'iy nazar qonun oldida teng bo'ladilar. Billashgan Millatlar Tashkilotining 1948- yilda qabul qilingan "Inson huquqlari deklaratsiyasi"da bu masalaga alohida e'tibor berilgan bo'lib Deklaratsiyaning 18-moddasida bunday deb yozib qo'yilgan: "Har bir inson vijdon va din erkinligi huquqiga egadir".

Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiya va 2250 taga yaqin diniy tashkilotlar faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, diniy tashkilotlar orasida ta'lim muassalari alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Musulmonlar idorasi tarkibida 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurtlari ya'ni madrasalar, Toshkent islom institute, Mir Arab

Oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi va 2 ta ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar bilim yurtlari faoliyat yuritmoqda.

**Muhokama:** Mening fikrimcha, O'zbekistonda davlat va din munosabatlari yahshi yo'lga qo'yilgan. Islom dini- bilim va ma'rifat dini hisoblanadi. Afsuski, bugungu kunga kelib ekstremistik tashkilotlar tomonidan bir qator g'ayriinsoniy g'oyalar targ'ib qilinib kelinmoqda. Bunga misol qilib, ISHID bayrog'I ostida faoliyat ko'rsatayotgan dimiy- ekstremistik harakatlarning rahnomalari musulmon bo'maganlarini o'ldirish mumkinligi haqida "fatvo"lar chiqarmoqda.

Jamiyatdagi bag'rikenglik va tinchlik muhitini xavf ostiga qo'yayotgan, diniy- confessional asosdagi nizolarga asos yaratayotgan davlatlar islom dinining asl mohiyatiga jiddiy putur yetkazmoqda. Hozirda islom dinini o'ziga niqob qilib olgan diniy-ekstremistik oqimlar din vakillarini garovga olish va turli qiynoqlarga solish, hattoki, shafqatsiz uslublarda qatl qildirishdek mudhish ishlarga qo'l urmoqdalar.

Hammamizga ma'lumki, Qu'roni karim Rum surasi 22- oyatiga ko'ra, odamlarning tili va rangidagi farqlar Xudoning mujiralaridandir deyilgan. Milliy va diniy rang- baranglik, e'tiqod erkinligi qaror toptirish masalalarida Qu'roni karimdan butunlaybag'rikenglik ruhi bilan sug'orilgani hammamizga ayon. Islom dinining muqaddas kitobi Qu'roni karimda: bu dunyoni barcha xalq va din vakillari tinch- totuv yashaydigan zamin deb e'lon qiladi. Qu'roni karimning ellikdan ortiq surasidagi yuzlab oyatlarda musulmonlar mo'min- qobillik, tinchlikparvarlik va boshqa e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikenglikka da'vat qilganlar.

**Xulosa:** Xullas, islom dini har doim inson qadr- qimmatiga kata e'tibor bergan va boshqa din vakillarining hayoti, sha'ni, or- nomusi va haq- huquqlarini yuksak darajada qadrlangan. Islom dini azaldan bag'rikeng din sifatida namoyon bo'lgan va hozirga qadar shunday hisonlayman. Markaziy Osiyo mintaqasi, shu jumladan, O'zbekiston mamlakati ham ming yillar davomida dinlararo bag'rikenglik o'lkasi sifatida e'tirof qilinadi va qadrlanadi. Aslida, o'zbek xalqi o'zining butun taruxi davomida boshqa xalq, millat va din vakillariga nisbatan hurmatini namoyon etib kelmoqda. Bular o'z navbatida, yurtimiz tinchligi, taraqqiyoti va umuminsoniy madaniyat rivojiga kata xizmat qilyapti.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi//YUNESKO Xalqaro meyoriy hujjatlari.- Toshkent: Adolat,2004y. 92bet;
3. Azon.uz;
4. <https://religions.uz>;
5. <https://uz.wikipedia.org>